

**ALEKSANDR FAYNBERGNING “VATAN” SHE’RIDA YURT MADHI VA
TUYG’ULAR UYG’UNLIGI**

Maxmudova Sarvinoz Ilhomjon qizi

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti Arab tili yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

Umurzakova Oygul Umarovna

*Ilmiy rahbar: O‘ZDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va
amaliyoti kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning “Vatan” she’ri badiiy va g‘oyaviy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda Vatan obrazi real manzaralar, mehnat jarayoni va ichki kechinmalar orqali yoritilgan. Maqolada she’rning obrazlar tizimi, til xususiyatlari va muallifning fuqarolik pozitsiyasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ona yurt, his-tuyg‘u, timsol, teodolit

Annotation. This article analyzes Alexander Feinberg’s poem “Homeland” from ideological and artistic perspectives. The image of the homeland is presented through realistic landscapes, labor experience, and the poet’s inner emotions. The article examines poetic language, imagery, and the author’s civic stance.

Key words: homeland, feeling, symbol, teotholid

Аннотация. В статье проводится идейно-художественный анализ стихотворения Александра Файнберга «Родина». Образ Родины раскрывается через реальные пейзажи, трудовой опыт и глубокие внутренние переживания лирического героя. Особое внимание уделяется системе образов, языку и гражданской позиции автора.

Ключевые слова: родина, чувства, символ, теодолид

KIRISH

Barchamizga ma’lumki, Vatan mavzusi jahon adabiyotida ham, o‘zbek adabiyotida ham yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha shoir va yozuvchilar ijodida nafaqat geografik makon, balki tarix, xotira, mas’uliyat va ruhiy bog‘liqlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Shuningdek ushbu keng ko‘lamli mavzu iste’dodli shoir, qalami o‘tkir ijodkor Aleksandr Arkadayeich Faynberg ijodida ham muhim o‘rin egallaydi. Muallifning “Vatan” nomli she’ri so‘zimizning yaqqol dalilidir. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, uning “Vatan” she’ri muallifning O‘zbekiston zaminiga bo‘lgan chuqur muhabbati, fuqarolik pozitsiyasi va badiiy tafakkurini yaqqol namoyon etadi.

Mushfiq yurt.

Shu yerda nasl-u nasabim-

O'zbekistondadir xokim, turobim

Hoy, Yevropa!

Seni tanimayman ham

Ushbu misralarda ham shoirning O'zbek zaminiga mehri bo'lakcha ekanligi, ushbu xalqda uning xoki va turobi joy olishini hamda uni Yevropaga alishmasligi shunday bir yuksak mahurat va badiiy ta'sirchanlik orqali ifoda etilganki, ushbu she'rni o'qigan har bir kitobxonning etini jimirlatadi va yurak-yuragidan joy oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur maqolada "Vatan" she'ri g'oyaviy-mazmuniy va badiiy jihatdan tahlil qilinib, undagi obrazlar tizimi, til vositalari hamda so'zlarning ta'sirchanlik darajasi ilmiy asosda yoritiladi.

SHE'RNING G'OYAVIY YO'NALISHI VA VATAN TUSHUNCHASI

Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to,

Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan –

Yo'llarning girdida bo'lib girgiddon

Gumbazdek teraklar turarlar qator

Yuqoridagi go'zal jumlarlar orqali shoir nazdida vatan tushunchasi qanday gavdalanishi yorqun bayon etilgan

Aleksandr Faynberg "Vatan" she'rida yurt tushunchasini balandparvoz shiorlar yoki mavhum timsollar orqali emas, balki real hayot manzaralari asosida ochib beradi. Quyoshli dalalar, tizma tog'lar, teraklar, loysuvoq uylar kabi detallar Vatanning tabiiy va ijtimoiy qiyofasini yaratadi. Bu yondashuv she'rga hayotiylik va ishonchlilik bag'ishlaydi.

Shoir uchun Vatan — tug'ilib-o'sgan joy emas, balki mehnat qilinadigan, mas'uliyat seziladigan, taqdir bog'langan makondir. Lirik qahramonning dalalarni kezib, yer o'lchashi Vatanni qurish va obod qilish jarayonida faol ishtirok etayotgan inson obrazini yaratadi. Bu holat she'rda Vatan mavzusining ijtimoiy-falsafiy mazmunini kuchaytiradi.

LIRIK QAHRAMON VA MEHNAT OBRAZI

Dalalarni kezdim qadamma-qadam,

Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob.

Loysuvoq uylarda simirdim chalob,

Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom

She'rda lirik qahramon passiv kuzatuvchi emas, balki faol subyekt sifatida gavdalanadi. "Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob" misrasi shoirning Vatanni sevishi faqat his-tuyg'u darajasida emas, balki amaliy faoliyat bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bu yerda mehnat obrazi Vatanga sadoqatning asosiy mezonini sifatida talqin etiladi.

Loysuvoquylar va eshiksiz hovlilar tasviri oddiy xalq hayotining samimiyligini ifodalaydi. Ushbu obrazlar orqali shoir o‘zini xalqdan ajratmaydi, aksincha, uning bir bo‘lagi sifatida ko‘rsatadi. Bu jihat Faynberg poeziyasining demokratik va insonparvar ruhini belgilaydi.

Badiiy vositalar va so‘zlar ta’sirchanligi

She’rda ishlatilgan badiiy vositalar mazmunni kuchaytirishga xizmat qiladi. Tabiat obrazlari ramziy ma’noga ega: burgut — erkinlik va g‘urur timsoli, sho‘r ko‘z yosh — Vatanni sevishtan bog‘liq iztirob va mas’uliyat belgisi sifatida talqin etiladi.

“So‘zlar ta’sirchanligi” she’rning asosiy poetik xususiyatlaridan biridir. Shoir sodda, ammo mazmunan chuqur leksik birliklardan foydalanib, kuchli emotsional ta’sirga erishadi. “Bu dam ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda” misrasi Vatanga muhabbatning murakkab va ziddiyatli tabiatini badiiy jihatdan mukammal ifodalaydi.

Mag‘rur parvoz etar burgut falakda.

O‘t tishladim.

Labda sho‘r ko‘z yosh

Bu dam ham baxtni, ham dardni tuydim yurakda

Ushbu misralar orqali esa shoining ona yurtga bo‘lgan muhabbati nechog‘li baland ekanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu mo‘zajgina misrada muallifning baxt-u quvonchlari, dard-u g‘amlari yashiringan va ushbu she’rga go‘zal yakun bo‘la olgan desak adashmagan bo‘lamiz

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynbergning “Vatan” she’ri yurtga bo‘lgan muhabbatni hayotiy tasvirlar, mehnat obrazi va kuchli fuqarolik pozitsiyasi orqali ochib beradi. Asarda Vatan tushunchasi geografik hudud emas, balki taqdir, mas’uliyat va ruhiy bog‘liqlik sifatida talqin etiladi. Shoirning sodda, ammo ta’sirchan tili she’rning badiiy qiymatini oshiradi.

Mazkur she’r o‘zbek adabiy makonida millatlararo madaniy uyg‘unlik va chin vatanparvarlik namunasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alexander Fainberg. “An attempt to Autobiography”
2. Aleksandr Faynberg. Qoralamaga qasida. – Toshkent. Adabiyot, 2021
3. <https://ziyo.uz.com/faynberg>
4. https://uz.wikipedia.org/Aleksandr_Faynberg